



O'QUVCHILARGA TINGLANADIGAN ASARLARINI TANISHTIRISH

Qurbanov Adhamjon Zafarjon og'li

Magistrant, Namangan Davlat universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7604952>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2023 yil
Ma'qullandi: 01-fevral 2023 yil
Nashr qilindi: 04-fevral 2023 yil

KEY WORDS

*Musiqqa, tinglash, asar, tahlil,
tasavvur, jarayon, suhbat.*

ABSTRACT

Musiqqa asarlarini o'rganish va tinglash jarayonida bolalar bir qancha asarlarni eslab qolishlari, shu asarlar haqida to'g'ri tushuncha hosil qilishlari, hatto ularni yaxshi ko'rishlari bilan birga, musiqaning ta'sirchanlik vositaliri haqida ma'lumot olishlari zarur. Bu ish jarayonida musiqqa savodi musiqqa tinglash bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Musiqqa savodida olingan bilim musiqqa asarlarini o'rganishda amaliy tadbiq qilinadi.

Bolalar musiqqa tinglashga asta-sekin odatlanibgina qolmay, balki, musiqqa haqida gapirib berishga ham o'rgana borishadi. Shubhasizki, bu narsa birdaniga sodir bo'lib qolmaydi. Musiqqa o'qituvchisining tinglangan asarlar xususidagi tushintirishlari, uning o'sha asarlarda turli vositalar va musiqaviy ta'sirchanlik element (unsur) laridan foydalanish haqida hikoya qilib berishi tufayli bolalar musiqqa tinglash jarayonida musiqqa mustaqil suratda tahliliy munosabatda bo'lishga tayyorlana boradilar.

Musiqqa madaniyati darslarida tinglab o'tilgan asarlar haqida o'qituvchining savollari va o'quvchilarning javoblari shaklida suhbat olib boriladi. O'quvchilarning ma'lum bir asar haqidagi tasavvurlarining barqarorligi va to'liqligi savollarning nechog'lik puxta o'ylanib, mantiqiy va ma'nodor qilib ifodalanishiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar asosan asaming o'ziga xos xususiyatiga, uning tempi va dinamikasiga taalluqli savollarga javob qaytara bilishlari, marshni, raqs kuyini, xalq qo'shiqlarini ajrata bilishlari kerak. Shuningdek, ikki va uch qismli asarlarni aniqlay olishlari zarur.

Bir o'quv yili mobaynida o'quvchilar 10-12 atrofida musiqqa asarlari bilan tanishishlari kerak. Har bir darsda 5-7 daqiqa atrofida musiqqa tinglash o'tkaziladi. Sinflarda yuqorilab borgan sari musiqqa tinglashni 8-12 daqiqagacha ko'tarish mumkin. Bu dastur bo'yicha biror chorakni chuqurroq o'rganish maqsadida tavsiya qilinadi. Bunday darslar chorak so'nggida o'tkaziladigan bo'lsa, ular topishmoq shaklidagi nazorat darslari bo'lishi mumkin. Bunda o'qituvchi shunga qadar tinglangan barcha musiqqa asarlarini chalib, qayta eshittiradi. Kichik asarlarni to'liq, katta asarlardan lavhalar chaladi. O'quvchilar esa asaming nomi, mualliflari, qaysi janrga taalluqli ekanligi haqida, asaming musiqiy tuzilishi, kompozitor asarda qanday ifoda vositalaridan foydalangani haqida bilganicha gapirib beradi. Beshinchi sinfdan dasturga xor, orkestr, simfoniya, libretto, uvertyura, musiqali drama va komediyadan parchalar, operalardan ariyalar, duetlar, raqs kuylari, maqomlar, klassik asarlar, folklor kuy va qo'shiqlar, chet el kompozitorlarining asarlari yettinchi sinfga qadar kiritilganki, bu

asarlarini ijro etish ko'p vaqt talab etadi. Shuning uchun ba'zan butun bir darsni musiqa tinglashga ajratish mumkin.

Dars davomida o'quvchilarni doimo musiqani idrok qilishga o'rgatish kerak. Avvalo, maktab o'quvchisi musiqa asarini yaxlit musiqali obraz deb anglashi muhimdir. Ma'lumki, musiqa mazmuni insonning his-tuyg'ulari, kayfiyati, fikrlaridan iborat. Musiqa insonning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan ichki xolatini, ruhiy kechinmalarini bayon etishi mumkin. Bolalarni xuddi ana shu his-tuyg'u va emotsional holatini idrok qilishga o'rgatishi lozim.

Musiqa o'qituvchisining o'z darslarini me'yoriy tashkil etishi bu musiqa tinglash faoliyatining mazmunli va samarali o'tishiga garovdir. Boshlang'ich sinflarda ilk musiqa tinglashlardan o'qituvchi bolalarga musiqa tinglash vaqtida o'z o'rtoqlarining eshitishlariga halaqit bermay o'tirishlarini qat'iy uqtirishi lozim. Chunki, bola bu tartibni buzsa, birinchidan, ijrochini hurmat qilmayotganini ko'rsatsa, ikkinchidan, tinglovchilar sinfdoshlarining fikrlarini chalg'itadi. O'qituvchi musiqa asarini tinglanayotgan vaqtda hadeb qimirlayvermasligini, erkin o'tirib asarni tinglash zarurligini, o'girilib qarash, qog'ozni shildiratish, shivirlab gaplashish, savol berish va boshqalarni jalb qiladigan va ortiqcha harakatlarni qilmaslikni bolalarga tushuntiradi. Musiqa asarini ihlos bilan va bosiqlik bilan zehn qo'yib, diqqatni jamlab tinglash kerakligini aytadi. Shunday yo'l bilangina o'quvchilarni madaniy tinglovchi qilib tarbiyalash mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini tez o'zgaruvchanligini hisobga olib, asarni tinglashdan avval ularga musiqa necha qismdan iboratligini, dinamikaning qanday rivojlanib borishini aniqlash, asosiy mavzu (kuy) ni eslab qolish kabi topshiriqlarni taklif qilishi mumkin.

Darsda o'qituvchining asarlarni to'g'ri va ifodali ijro etishlari ahamiyatlidir. Chunki, bolalarning asarni tez va sifatli o'zlashtirishlari ana shunga bog'liqdir.

Chorak mavzusidan kelib chiqib, asarning musiqaviy tuzilishi, xarakteri, ifoda vositalari, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, sinf tarkibi jihatdan o'rganib, quyidagi bosqichlarda o'zlashtiriladi:

1. Asarni tinglashga bolalar diqqatini tortish va asar haqida o'qituvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki texnika vositasi orqali asarni tinglash.
3. Tinglangan asar haqida suhbat-tahlil.
4. Asarni to'la va qayta tinglash, asar haqida bolalar taassuroti va yakuniy suhbat.

O'qituvchi darsda musiqa asarini ijro etishdan oldin bolalarni tinglashga tayyorlashi, ularning asarni mukammal anglab olishlariga, his etish va baho berishlariga yordam bermog'i zarur. Buning uchun o'qituvchi asarni birinchi marta ijro etishdan oldin qisqacha kirish suhbatini o'tkazadi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni musiqa tinglashga hissiy tayyorlashdir. Odatda, o'qituvchi asar mualliflarining nomlarini aytadi, ularning hayoti va ijodi haqida qisqacha gapirib beradi, asarning yaratilish tarixidan olingan biror dalilni bayon qiladi, shundan so'nggina o'quvchilarning diqqatini jamlab va bolalarda qiziqish uyg'otib, asarni ijro etishga kirishadi. Suhbatni suratlar, rangli rasmlar, sahna ko'rinishlari va mashhur ijrochilarga oid foto suratlar bilan olib borish foydalidir.

Musiqa daslarida musiqa asarini so'zlar bilan sharhlangan holda olib borish bolalar idrokiga ijobiy ta'sir qiladi. O'qituvchi o'zining qisqa-qisqa tushuntirishlari bilan bolalarga musiqa emotsional mazmunini, uning go'zalligini idrok qilishda yordamlashadi, asarning eng mazmunli joylariga alohida e'tibor berish lozimligini uqtiradi, savollar beradi va musiqa asarini tinglagan vaqtda undagi muhim

joylarini ajratish haqida vazifalar beradi. O'qituvchi bolalar tinglab bo'lgandan so'ng o'z taassurotlarini anglashlariga, musiqaning xarakterini so'zlar vositasida belgilashlariga, unda nimalar ko'proq yoqqanligini aytishlariga erishadi, musiqaning emotsional mazmunidagi eng nozik va xilma-xil ta'riflarni topishga yordam beradi.

Asarni o'rganishda uni ijro etib ko'rsatish juda muhimdir. Agar asar bolalarga darrov yoqib qolsa, o'qituvchining asar ustida ishlashi oson bo'ladi. Aksincha, ularga yoqmagan asar ustida ishlashda o'qituvchining bolalarda shu asarga nisbatan paydo bo'lgan salbiy tushunchani bartaraf qilishiga to'g'ri keladi, bu esa o'quvchilarning asarni o'zlashtirishlariga anchagina to'siq bo'ladi.

Asarni yuksak badiiy saviyada ijro etishgina o'quvchilarni jalb etishi va tinglangan musiqaga havas uyg'otishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, oqituvchining asami bevosita ijro etishga nisbatan disketdan eshittirishi ancha beparvolik bilan idrok etiladi. Agar o'qituvchi biror cholg'u asbobi (fortepiano, rubob, g'ijjak, dutor, bayan va boshqalar) ni yaxshi chala bilsa, u bolalarga imkon boricha chalib berishga harakat qilishi lozim. Bunda o'qituvchining o'zi ijro etadigan asarlarni uyda juda puxtalik bilan tayyorlashi, notaga qarab chalishdan tiyilish ya'ni asarni yoddan to'g'ri ijro eta olishi, bolalarga nazar tashlab turish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun asarni sinchiklab o'rganib olishi zarur. Asarni jo'shqin, ta'sirli va puxta o'ylab ijro etish kerak. Agar tinglanadigan asar vokal janriga oid bo'lsa, o'qituvchi, garchi ovozi uncha kuchli bo'lmasa ham, shu asarni so'zi bilan aytib berishdan tortinmasligi lozim. Asarni yaxshi bilib olish muhimdir, shundagina o'qituvchi uni ijro etishi bilan bolalarni asarning texnik yozuviga qaraganda ko'proq jalb eta oladi, chunki, "jonli ijro" doimo yaxshiroq idrok qilinadi.

Lekin shunday asarlar ham borki, ularni eshittirishda magnit tasmlari yoki disketlardan foydalanmaslikning iloji yo'q. Busiz xor, orkestr, simfoniya, opera ariyalari, baletlardan parchalar, turli cholg'u asboblari ansambli (dastasi) da ijro etilgan kuylarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun maktabda eng yaxshi jamoalar, ansambllar, orkestrlar va yakkaxon hofizlar ijrosidagi musiqa asarlari yozib olingan disklar to'plarni bo'lishi juda ham foydalidir. O'qituvchi magnit yozuvidagi asarni tinglar ekan, o'zi ham shu musiqa asari yoki mavzuning ayrim lavhalarini dadil chala bilishi yoki kuylay olishi kerak.

Musiqa asarini o'qituvchi birinchi marta to'la-to'kis ijro etishi shart. Agar bu opera, simfoniya yoki kantata bo'lsa, batafsil o'rganiladigan parcha yoki qism o'qituvchi tomonidan to'liq ijro etiladi. So'ngra, tahlil qilish jaryonida o'qituvchi ayrim musiqa frazalarini, ba'zi parcha va mavzularni chalib va kuylab beradi, ohirida esa, go'yo yakun chiqargandek, asarni yana to'liq ijro etadi.

Musiqa asarini ijro etgandan keyin o'qituvchi uni bolalar bilan suhbat shaklida tahlil qilishga kirishadi. Asarning tuzilish xususiyatlari – shakli, ladi, tonligi, garmoniyasi, xarakteri, ohangdoshligi, tempi, kuyi, jo'rovlikning roli va shu kabilar oydinlashtiriladi.

Suhbatlarni o'quvchilarning faol ishtirokida maroqli, zavqli qilib o'tkazish lozim. Xonada shunday ijodiy vaziyat tug'dirish kerakki, bunda o'quvchilar tinglangan asarda o'zlarini nimalar hayajonlantirganini tortinmasdan samimiy ravishda gapiradigan bo'lsinlar. Suhbat, tahlil, o'qituvchining izohlari aniq, qisqa, mantiqiy bo'lishi, bularning hammasi musiqani bevosita idrok etish bilan, albatta, mustahkamlana borishi kerak.

O'qituvchi keyingi darslarda asarni qayta ijro etishda shu asar haqidagi ma'lumotlar doirasini asta-sekin kengaytiradi, yangi dalil va tafsilotlarni bayon qiladi, asar tuzilishining boshqa

xususiyatlariga bolalar diqqatini jalb etadi. Darslar jarayonida tinglangan asarning ko'p marta takrorlanishi uning yaxshiroq o'zlashtirilishiga va xotirada qolishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.M. Sharipova, D.F. Asamova, Z.L. Xodjayeva. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2014.
2. T. Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2010.
3. G. Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2008.

